

TASDIQLAYMAN

Kosmik monitoring va geoaxborot
texnologiyalari markazi
direktor o'rinbosari
(direktor v.b.)

S. Aliyev

2022 yil

**Chorvoq suv ombori hududi uchun relyefning raqamli modelini yaratish bo'yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ**

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarni mazmuni
I bob. Umumiy ma'lumotlar		
1	Loyihaning to'liq nomi	"Chorvoq" suv ombori hududi uchun relyefning raqamli modelini yaratish.
2	Loyiha turi	Relyefning raqamli modelini yaratish
3	Loyihaning amalga oshirish uchun asos	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6 avgustdagi 499-sonli qarori
4	Belgilangan hudud	Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, "Chorvoq" suv ombori.
5	Loyihani bajarish muddati	2022 yil 25 dekabr.
6	Buyurtmachi	Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi
7	Loyihaning maqsadi	"Chorvoq" suv ombori hududi uchun relyefning raqamli modelini yaratish orqali belgilangan suv omborining suv sathining vaqt davomida o'zgarishi dinamikasini kuzatish.
8	Geografik (territorial) xususiyatlari	Chorvoq suv omborining geografik koordinatalari: Kenglik: 41°38'15" shimol; Uzoqlik: 70°02'00" sharq. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanining shimoliy-sharq qismida joylashgan.
9	Obyektning asosiy texnik xususiyatlari	Chorvoq suv ombori Ishga tushirilgan yili: 1978 yil; Joylashgan manzili: Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani; Suv ombori turi: O'zanli; Suv olish manbasi: Piskem, Koksuv, Chotqol; Absolyut belgilar: normal suv sathi: 890.0; Suv ombori hajmi: to'liq: 2006 mln m ³ ; foydali: 1580 mln.m ³ ; To'g'on parametrlari: turi: tosh-tuproqli; uzunligi: 764 m; balandligi: 168 m;
II bob. Relyefning raqamli modeliga qo'yiladigan talablar, Buyurtmachi va Ijrochi tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar ro'yxati		
1	Relyefning raqamli modeliga qo'yiladigan talablar	1.1. Relefnig raqamli modeli nuqtalari orasidagi masofa 0,5 metrdan ko'p bo'lmagan. 1.2. Ma'lumotlar taqdim etilish formati: GeoTIFF. 1.3. Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan maydonning barcha qismlarda o'lchash ishlari olib borilishi shart.

2	Buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar	“Chorvoq” suv ombori chegarasining konturi (elektron xarita va grafik ko‘rinishda).
3	Ijrochi tomonidan Buyurtmachi tashkilotga taqdim etiladigan ma'lumotlar ro'yxati va tarkibi	3.1. Umumiy hududi 40 kv.km ga teng bo‘lgan “Chorvoq” suv ombori hududi uchun relyefning raqamli modeli; 3.2. “Chorvoq” suv ombori hududining 3D ko‘rinishdagi shakli. Ma'lumotlar qattiq diskda taqdim etiladi.
4	Xizmatlarni taqdim etish, nazorat qilish va qabul qilish tartibi	4.1. Bajarilgan ishlarni topshirish va qabul qilish, ushbu texnik topshiriqqa muvofiq, materiallarni olgandan keyin Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan xizmat natijalariga ko‘ra amalga oshiriladi; 4.2. Buyurtmachining ijobiy hulosasiga ko‘ra tomonlar bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.
5	Xizmatlarni bajarish tartibi	Shartnoma imzolangandan so‘ng 10 kun muddatda.

Ishlab chiqdi:

Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi
bo‘lim boshlig‘i

B.Sh. Pirnazarov

Kelishildi:

Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi
bo‘lim boshlig‘i

F.U. Baymatov